

23-dars

Darsning mavzusi: Soʻz yasovchi qoʻshimchalar

(99-102-mashqlar)

Darsning taʼlimiy maqsadi: soʻz yasovchi qoʻshimchalar, ular ishtirok etgan soʻzlarning soʻrogʻi, ular ishtirokida gaplar tuzish, gapdagi vazifasi haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash; mashq va topshiriqlardagi terma gap va matnlarni tinglab tushuna olish, gapning bosh va ikkinchi darajali boʻlaklari, kesim gapning markazi ekanini, eganing kesim bilan munosabati va soʻroqlarini bilish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: oʻquvchilarda vatanparvarlik, odobli, ilmi boʻlish hissini kuchaytirish; axborot manbalaridan va darslik materiallaridan tashqari (kitob, lugʻat) manbalardan maʼlumotlarni izlab topa olish va foydalanish; oʻzining xato va kamchiliklarini toʻgʻri tushunib, oʻzini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va oʻrtoqlariga yordam berish; milliy qadriyatlarni bilish;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: asos va asosdosh soʻzlarni farqlash koʻnikmalarini takomillashtirish; talaffuz meʼyorlariga rioya qila oladi, boʻgʻin koʻchirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid soʻzlarni ogʻzaki va yozma nutqda qoʻllay oladi, oʻzlashtirilgan leksik birliklarni matnda qoʻllay olish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning metodi: suhbat, analiz, “Blits soʻrov” metodi, koʻrgazmalilik.

Darsning jihozlari: mavzuga oid turli mazmunli rasmlar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- maʼnaviyat daqiqasi.

II. Oʻtilgan mavzularni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Odobli bola elga manzur.

Uyga berilgan vazifa o'quvchilar daftari ko'rib chiqiladi. Suhbat yordamida uy vazifasi qanday bajarilganligi aniqlanadi. Quyidagicha savollar beriladi.

1. *Nechta so'z birikmasi yozdingiz?*
2. *Har bir allomaning gaplarini tahlil qilingizmi?*
3. *So'z yasovchi qo'shimchalarning vazifasi nimadan iborat ekan?*

Javob bergan va husnixat asosida yozgan o'quvchilar daftarlari namuna sifatida ko'rsatilib rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Saylanma diktant. Matndagi so'z yasovchi qo'shimchalari bor bo'lgan so'zlarni husnixat bilan yozish, ularni qayta tekshirish kerakligi tushuntiriladi.

Daraxtlardagi barglar sarg'aydi. Kunlar asta-sekin sovidi. O'quvchilar maktablariga qaytishdi. Ularga o'qituvchilar bilim berishyapti.

O'quvchilar topshiriqni bajaradilar. O'quvchilar yozganlarini tekshiradilar.

O'qituvchi o'quvchilar darslikni ochishlari bilan darslikdagi qoida berilgan ifodali o'qib beriladi. So'ng qoida tahlil qilinadi. So'z yasovchi qo'shimchalar ustiga chizish ham tushuntiriladi.

1-topshiriq.

99-mashq. Gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga so'z yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, ko'chiring.

1. Odobni odobsizdan o'rgan.
2. Qo'shiqchi qo'shigini baland ovozda aytdi.
3. Ilmsiz bir yashar, ilimli ming.
4. uning uch o'g'li ham ishchi edi.
5. Sinfdozlarim bilan sayohatga bordik.

Dam olish daqiqasi

Anjir

Kecha-kunduz uxlamay,
Meva tugdim gullamay.
Mevam o'zi gulchadir,
Tillo rangli kulchadir.
G'o'daymayman, sipoman.
Ko'p dardlarga shifoman.
Meni yesa Mutallib,
Yurmas edi yo'talib.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

“Soʻzga mos soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻy” Darsning taʼlimiy maqsadi oʻyini.

100-mashq shartiga koʻra bajartiriladi. Buning uchun oʻquvchilarga quyidagi koʻrinishdagi tarqatmalar beriladi. Oʻquvchilar gaplarni oʻqib, soʻzga mos qoʻshimchani topib yozishlari kerak.

Topishmoqlar	Oʻquvchining javobi	Qoʻyish uchun qoʻshimchalar	Topishmoq javobi
Qanot ... uchar, Yelkan ... suzar.	-siz	-li	
Qat-qat toʻn ..., Qarich – boʻy	-li	-siz	
Yozib umrin tugatar , ...harakat shu qadar .	-ser	-siz	
Chiziladi koʻkda qalam ..., Har xil boʻyoq , rassom	-siz	-ser	

2-topshiriq.

101-mashq

Multimedia ilova topshiriqʻida soʻroqlar yordamida soʻz yasovchi qatnashgan soʻzlarni toping. Shu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing va yozing

Bir	Ishla	Aqlli	Ilmli	Tikdi
Oldi	Ovchi	Besh	Olti	Naql
Uch	Gulla	Nurli	Tuzla	Qurdi
Kel	Oʻn	Ildi	Sozla	Uzdi
Yur	Ikki	Urdu	Ovla	Terdi
ber	ovsiz	oqla	ilmsiz	ichdi

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida oʻquvchilar joriy darsda oʻzlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. Soʻngra dars davomida faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

102-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi taʼkidlanadi.